



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, I-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI VA UNING BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI	18
Nazarov G'ayrat Xayrullayevich	
YUKLARNI TASHISHDA ZARURIY TRANSPORT XUJJATLARI.....	22
Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATI HUDUDLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY IMTIYOZ VA PREFERENSIYALARNI SAMARALI QO'LLASH YO'NALISHLARI.....	27
Otamurodova Dildora Abdukrimovna	
GLOBAL BEQARORLIK SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MODELLARI	32
Saidnazarova Odinabonu Saidolim qizi	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ИССЛЕДОВАНИЙ В ОБЛАСТИ УЧЕТА И АУДИТА ФИНАНСОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ.....	37
Пулатова Мадина Бейсеновна	
Табаев Азамат Зарипбаевич	
MAJBURIYATMI YOKI MAJBURIY RISK? MOLIYAVIY MAJBURIYATLAR KONSEPTUAL ASOSLARINING IQTISODIY TABIATI VA ZAMONAVIY TALQINLARI.....	42
Palvanov Xusniddin Bekimmatovich	
ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ УЧЕТА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ В СИСТЕМЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ.....	47
Пу Кебин	
TRANSPORT XIZMATLARI SIFATINI BARQARORLIK NUQTAYI NAZARIDAN O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	51
Xodjaniyazov Elbek Sardorovich	
VILOYAT SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI KO'P OMILLI EMPIRIK MODELLAR ASOSIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH (Qashqadaryo viloyati misolida)	57
Avazova Nafisa Namazovna	
SANOAT KORXONALARI SHOVQINI VA ATMOSFERA CHIQINDILARINING TURAR-JOY HUDUDLARI EKOLOGIYASIGA TA'SIRINI KAMAYTIRISH CHORALARI	61
Saparova Shohida Abduvaliyevna	
SANOAT SHOVQINI VA ATMOSFERA IFLOSLANISHINING SHAHAR TURAR JOY HUDUDLARI VA EKOLOGIYASIGA TASIRINI O'RGANISH.....	65
Shaxyusupova Nilufar Erkin qizi	
BARQAROR SHAHAR RIVOJLANISHIDA SANOAT OQOVA SUVLARINI BIOLOGIK TOZALASH TEXNOLOGIYALARINING ROLI.....	69
Tursunova Aziza Asrorovna	
SHAHAR EKOLOGIK MUHITIGA SANOAT KORXONALARINING TA'SIRINI BAHOLASH.....	75
Imomnazarov Farrux Saibjabbor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI.....	78
Xusanova Zulfiya Raxmatullayevna	
KORXONALARDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION BOSHQARUV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	87
No'monjonova Muazzam Mahbubjon qizi	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	93
Nasimov Ravshanjon Azimovich	



KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	100
Kazakova Zulayho Salaxiddinovna	
THE IMPACT OF DIGITAL LITERACY ON LABOR PRODUCTIVITY IN UZBEKISTAN'S SERVICE SECTOR: A REGRESSION ANALYSIS.....	106
Ismoilov Elyorjon Makhamadali Ugli	
Urinov Bobur Nasilloevich	
EKOLOGIK NIZOLARNI HAL ETISHDA SUD AMALIYOTINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	112
Gapparov Sarvar Xolmurodovich	



EKOLOGIK NIZOLARNI HAL ETISHDA SUD AMALIYOTINING O'RNINI VA AHAMIYATI



Gapparov Sarvar Xolmurodovich
Central Asian Green University magistranti
Ilmiy rahbar: Kuldasheva Aziza, DSc, professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik nizolar, milliy tizimning hozirgi holati va sudlar ularni qanday hal qilayotgani ko'rib chiqiladi. Tadqiqotga ko'ra, eng katta muammolar tabiatni tiklash tizimining yo'qligi va jarimalarni budjetga yo'naltirish amaliyotidir. Jahon tajribasi nuqtayi nazaridan ixtisoslashgan sud hay'atlarini tashkil etish salohiyati ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: ekologik nizolar, sud amaliyoti, Green University, texnik ekspertlar, remediatsiya, Hindiston Milliy Ekologik Tribunali (National Green Tribunal), jarima tizimi.

Abstract: This article takes a look at environmental conflicts, the current state of the national system, and how the courts are handling them. According to the research, the biggest issues are the absence of a system for restoring nature and the practice of channeling fines to the budget. The potential for establishing specialist judicial panels is emphasized in light of worldwide experience.

Аннотация: В данной статье рассматриваются экологические конфликты, текущее состояние национальной системы и то, как суды их рассматривают. Согласно исследованию, наиболее серьезными проблемами являются отсутствие системы восстановления природы и практика направления штрафов в бюджет. В свете мирового опыта подчеркивается потенциал создания специализированных судебных коллегий..

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 49-moddasida har kim qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqiga ega ekanligi belgilangani sudlar zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi [1]. Bu borada O'zbekistonning "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni alohida ahamiyatga ega [2]. Ekologik nizolarni hal etishda sud amaliyotining o'рни va ahamiyati nafaqat qonun ustuvorligini ta'minlash, balki tabiatni muhofaza qilishning huquqiy mexanizmlarini kuchaytirishda ham beqiyosdir. Sudlarning eng muhim vazifalaridan biri — atrof-muhitga yetkazilgan zararni hisoblash va uni aybdorlardan undirishdir. Sud amaliyoti "ifloslantiruvchi to'laydi" tamoyilining hayotga tatbiq etilishini ta'minlaydi [3]. Zamonaviy ekologik nizolar faqatgina huquqiy emas, balki murakkab ilmiy-texnik ekspertizani talab qiluvchi jarayonga aylandi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ekologik ishlar doirasida professional sudyalar bilan bir qatorda texnik ekspertlarning ishtiroki qarorlarning adolatli va ilmiy asoslangan bo'lishini ta'minlaydi. Hindiston Oliy sudi 1986-yildagi "M.K. Mehta Hindiston Ittifoqiga qarshi" ishida ta'kidlaganidek, ekologik ishlar ijtimoiy va ilmiy jihatdan murakkab bo'lib, ularni ko'rib chiqish uchun maxsus professional sudyalar va ekspertlar talab etiladi [4].

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi nizolar o'zining texnik va ilmiy murakkabligi bilan boshqa turdagi huquqiy nizolardan ajralib turadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ekologik adolat faqatgina qonunbuzarni jazolash emas, balki tabiatga yetkazilgan zararni asliga qaytarishni (remediation) anglatadi [5].

Maqolada 2024–2026-yillar oralig'ida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy sudlari tomonidan ekologik va iqtisodiy nizolarni hal qilish sohasida qabul qilingan sud qarorlari o'rganiladi va tizimlashtiriladi. Qiyosiy-huquqiy tahlil usulidan foydalangan holda, tadqiqotda National Green Tribunal va O'zbekiston iqtisodiy sudlari tomonidan qo'llaniladigan institutsional va protsessual yondashuvlar baholanadi, bunda ekologik adolat mexanizmlari, sud vakolati va nizolarni hal qilish amaliyotining samaradorligiga alohida e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari,



tadqiqot Nurafshon tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan 2026-yilda ko'rib chiqilgan muayyan sud jarayonining amaliy tahlilini o'z ichiga oladi, bu esa milliy huquqiy asosda ekologik qonunchilik va sud ijrosi mexanizmlarining amaliy qo'llanilishini chuqur baholash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari qiyosiy ekologik yurisprudensiyani rivojlantirishga hissa qo'shadi va O'zbekistonda ekologik sud amaliyotini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik nizolarni hal etish masalasi zamonaviy ekologik huquqning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik huquqbuzarliklar oqibatlarini bartaraf etishda sud amaliyoti muhim huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, ekologik huquqlarning buzilishi bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqishda sudlar nafaqat qonun normalarini qo'llaydi, balki ekologik adolat tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish orqali atrof-muhitni muhofaza qilish tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ekologik nizolar va sud amaliyoti masalalari xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Alexandre Kiss va Dinah Shelton ekologik huquqning xalqaro rivojlanishini tahlil qilib, ekologik huquqlarni himoya qilishda sud organlarining roli tobora ortib borayotganini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, ekologik nizolarni hal etishda sudlar barqaror rivojlanish tamoyillarini huquqiy amaliyotga integratsiya qiluvchi asosiy institutlardan biri hisoblanadi. Olimlar ekologik zarar yetkazilgan hollarda sudlarning kompensatsiya va restitutsiya mexanizmlaridan foydalanishi ekologik adolatni ta'minlashga xizmat qilishini qayd etadi.

Philippe Sands xalqaro ekologik huquq bo'yicha tadqiqotlarida ekologik nizolarni hal qilishda milliy va xalqaro sudlarning ahamiyatini chuqur tahlil qilgan. U ekologik xavfsizlikni ta'minlashda sud qarorlari davlat organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini qonuniy tartibga solishning muhim vositasi ekanligini ko'rsatadi. Olimning ta'kidlashicha, sud amaliyoti ekologik qonunchilikdagi bo'shliqlarni to'ldirish va ekologik standartlarning amalda ishlashini ta'minlashga yordam beradi.

Michael Faure ekologik javobgarlik va ekologik zararlarni qoplash masalalarini iqtisodiy-huquqiy nuqtayi nazardan tadqiq qilgan. Uning ilmiy ishlarida ekologik nizolarni hal etishda sudlar tomonidan zarar miqdorini aniqlash, ekologik ekspertiza natijalaridan foydalanish va kompensatsiya mexanizmlarini qo'llash masalalari yoritilgan. Muallif ekologik javobgarlik tizimining samaradorligi ko'p jihatdan sud amaliyotining rivojlanganlik darajasiga bog'liq ekanligini asoslaydi.

Edith Brown Weiss ekologik adolat va avlodlararo tenglik konsepsiyasini ishlab chiqib, sudlarning ekologik huquqlarni himoya qilishdagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, ekologik nizolarni ko'rib chiqishda sudlar nafaqat mavjud avlod manfaatlarini, balki kelajak avlodlarning ekologik manfaatlarini ham hisobga olishi lozim. Bu yondashuv ekologik sud amaliyotining barqaror rivojlanish maqsadlariga mos ravishda shakllanishiga xizmat qiladi.

Louis J. Kotzé ekologik konstitutsionalizm va ekologik boshqaruv masalalarini o'rganar ekan, sud hokimiyatining ekologik huquqlarni ta'minlashdagi roliga e'tibor qaratadi. Uning tadqiqotlarida sudlar ekologik boshqaruvning muhim elementi sifatida baholanib, ekologik qonunchilik ijrosini nazorat qiluvchi samarali institut sifatida tavsiflanadi. Olim sud amaliyotining rivojlanishi ekologik boshqaruv sifatini oshirishga xizmat qilishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Mahalliy va MDH mamlakatlari olimlari ham ekologik huquq va ekologik nizolar masalasiga katta e'tibor qaratgan. M.M. Brinchuk ekologik huquqning nazariy asoslarini tadqiq qilib, ekologik huquqbuzarliklar bo'yicha sud amaliyoti ekologik qonunchilikning amaliy samaradorligini belgilovchi muhim mezon ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ekologik nizolarni sud tartibida ko'rib chiqish fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

S.A. Bogolyubov ekologik qonunchilikni qo'llash amaliyotini tahlil qilib, sudlar ekologik nizolarni hal etishda ekologik ekspertiza xulosalaridan samarali foydalanishi zarurligini qayd etadi. Olimning fikricha, ekologik nizolar bo'yicha sud qarorlarining sifati ko'p jihatdan ilmiy asoslangan ekspertiza natijalariga bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili ekologik nizolarni hal etishda sud amaliyoti ekologik huquqlarni himoya qilish, ekologik zararlarni qoplash, barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirish hamda ekologik qonunchilik ijrosini ta'minlashning muhim institutsional mexanizmi ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ekologik nizolar sonining ortib borishi sud amaliyotini yanada takomillashtirish, ekologik ekspertiza institutini rivojlantirish va ekologik adolat tamoyillarini sud qarorlarida kengroq qo'llash zaruratini yuzaga keltirmoqda.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida ekologik nizolarni hal etishga oid milliy va xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar hamda sud qarorlari ma'lumot manbai sifatida o'rganildi. To'plangan ma'lumotlar qiyosiy-huquqiy, tizimli va kontent tahlil usullari asosida tahlil qilinib, sud amaliyotining ekologik nizolarni hal etishdagi o'rni va samaradorligi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ochiq ma'lumotlar portali tahlili shuni ko'rsatdiki, 2024–2026-yillar oralig'ida iqtisodiy sudlar tomonidan atrof-muhitni muhofaza etish qonunchiligi buzilishi yuzasidan jami 716 ta sud qarori e'lon qilingan [8]. Ushbu qarorlarning mazmuniy tahlili tizimdagi jiddiy muammoni ochib beradi.

Tahlil qilingan 716 ta sud ishi shuni tasdiqlaydiki, amaldagi tizimda ekologik jarimalar budjetning umumiy xarajatlari ichida qolmoqda. Undirilgan jarima va kompensatsiyalar davlat budjetining umumiy bo'limiga tushadi va aynan zarar ko'rgan hudud ekotizimini tiklashga yo'naltirilmaydi. Bu esa ekologik huquqbuzarlik uchun jazoning profilaktik kuchini kamaytiradi [6]. Ko'p hollarda sudyalarda texnik va ekologik bilimlarning yetishmasligi murakkab ekspertiza xulosalarini xolis va ilmiy baholash imkonini cheklab qo'yimoqda [7]. Hindistonning Milliy Ekologik Tribunali (NGT) tajribasida esa sud tarkibidagi texnik ekspertlar yordamida jarima miqdori emas, balki zararni tiklash rejasi (remediation plan) birinchi o'ringa qo'yiladi [4].

O'zbekistonda ekologik sudlovni takomillashtirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

1. Ekspertiza integratsiyasi: Sud jarayoniga "Green University" mutaxassislarini "texnik ekspertlar" sifatida jalb qilish va ularning xulosasini majburiy deb belgilash.
2. Maqsadli jamg'arma: Ekologik jarimalarni budjetning umumiy qismidan ajratib, faqatgina zararlangan hudud ekologiyasini tiklashga yo'naltirish mexanizmini yaratish.
3. Sud qarori shaklini o'zgartirish: Sud qarorida faqat pul undirish emas, balki aniq "ekologik tiklash harakatlari" majburiyatini belgilash.

716 ta sud ishi shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston sud tizimi "jazolash" bosqichidan "tiklash" bosqichiga o'tishi zarur. Faqatgina ixtisoslashgan ekologik hay'atlarning tashkil etilishi va ilmiy-texnik yondashuvning joriy etilishi tabiatni asrab qolishning real kafolati bo'lib xizmat qiladi. Hindistonning Milliy Ekologik Tribunali (National Green Tribunal) tajribasi bilan qiyoslaganda, bizdagi holatda "ifloslantiruvchi to'laydi" tamoyili o'zining asl maqsadidan, ya'ni atrof-muhitni asrashdan uzilib qolgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda ekologik nizolarni hal etish sohasida iqtisodiy sudlarning muhim o'rin tutishini hamda atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarning amaliy qo'llanilishini namoyon etdi. 2024–2026-yillar davomida qabul qilingan sud qarorlarining tahlili ekologik qonunchilik talablarini ta'minlash, atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun javobgarlik choralarini qo'llash va ekologik xavfsizlikni mustahkamlash borasida sud amaliyoti izchil rivojlanib borayotganini ko'rsatdi.

Qiyosiy-huquqiy tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, xalqaro tajribada qo'llanilayotgan ayrim institutsional va protsessual yondashuvlar milliy amaliyotni yanada takomillashtirish uchun foydali ahamiyat kasb etishi mumkin. Xususan, ilmiy-texnik ekspertiza imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ekologik zarar oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan amaliy mexanizmlarni rivojlantirish hamda sud qarorlarining ekologik samaradorligini oshirish ekologik adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot davomida o'rganilgan sud amaliyoti ekologik huquqbuzarliklarning oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantirish va fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilishda sudlarning ahamiyati ortib borayotganini tasdiqladi. Shu nuqtayi nazardan, ekologik sudlov amaliyotini zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish, mutaxassislar ishtirokini kengaytirish va ekologik tiklanish tamoyillarini yanada rivojlantirish kelgusida ushbu sohaning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 49-modda
2. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda 754-XII-son Qonuni. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida," [Elektron resurs] // URL: <https://lex.uz/docs/-107115> (Murojaat sanasi: 2023-yil yanvar).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.10.2019-yildagi PF-5863-son. V bob. Ekologik muammolarni hal etish yo'llari



4. <https://www.cseindia.org/national-green-tribunal--a-new-beginning-for-environmental-cases-2900>
5. Xalikulov K. Ekologik nizolarni tartibga solishda sudlarning roli va ahamiyati // International Journal of Law and Criminology. – 2024 <https://theusajournals.com/index.php/ijlc/article/view/2345/2262>
6. Gafurov R. Prokurorning ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonuniylik holati tahlili // TAJPSLC. – 2021. – S. 49-56.
7. Arzikulov A. Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini takomillashtirish // WBML. – 2023. – T. 22.
8. https://public.sud.uz/report/ECONOMIC_NEW
9. Nurafshon tumanlararo iqtisodiy sudining 2026 yil 26 martdagi 4-1101-2611/8173-sonli hal qiluv qarori.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>